

MUSTAQILLIK YILLARIDA SHOHI ZINDA YODGORLIGINI QAYTA TIKLASH VA TAʼMIRLASH KONTSEPTSIYALARI

Karimova Nurxon Abduboevna

*“Arxitektura nazariyasi va tarixi” kafedrası o’qituvchisi
(Samarqand Davlat Arxitektura-qurilish Universiteti)*

Begmamatov Fatxulla

*201-Arxitektura guruhi talabasi
(Samarqand Davlat Arxitektura-qurilish Universiteti)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada yodgorlikni qayta tiklash va taʼmirlashda faqat ustalar emas, olimlar, muhandislar, meʼmorlar, arxeologlar, tarixchilar, diniy idoralarning vakillari, obodonlashtirish va kommunal xizmat tashkilotlari xodimlari ham oʻz fikr mulohaza va tajribalari asosida qatnashishlari. Tarixiy obidalarini taʼmirlash va qayta tiklash jarayonida barcha ishlar ilmiy loyiha va muayyan kontsepsiya asosida olib borilishi zarurligi toʻgʻrisida maʼlumot berilgan.

Kalit soʻzlar: Yodgorlik, ilmiy loyiha, kontsepsiya, qayta tiklash, taʼmirlash, usta, olimlar, muhandislar, meʼmorlar, arxeologlar, tarixchilar, diniy idoralar, obodonlashtirish.

Аннотация. В данной статье отмечается, что в восстановлении и ремонте памятника принимают участие не только мастера, но и ученые, инженеры, архитекторы, археологи, историки, представители религиозных организаций, работники ландшафтных и коммунальных организаций на основе их отзывов и опыта. В процессе ремонта и реставрации исторических памятников дается информация о том, что все работы должны проводиться на основе научного проекта и определенной концепции.

Ключевые слова: Памятник, научный проект, концепция, реставрация, ремонт, мастер, ученые, инженеры, архитекторы, археологи, историки, религиозные учреждения, ландшафтный дизайн.

Annotation. This article notes that not only craftsmen take part in the restoration and repair of the monument, but also scientists, engineers, architects, archaeologists, historians, representatives of religious organizations, employees of landscape and communal organizations based on their feedback and experience. In the process of repair and restoration of historical monuments, information is given that all work should be carried out on the basis of a scientific project and a certain concept.

Keywords: Monument, scientific project, concept, restoration, repair, master, scientists, engineers, architects, archaeologists, historians, religious institutions, landscape design.

Kirish. Istiqloq yillarida mamlakatimizda vijdon erkinligi, diniy bag'rikenglik tamoyillarini ta'minlash, ularning qonuniy asoslarini yaratish va rivojlantirish masalalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Imon-e'tiqod, mehr-oqibat, muruvvat kabi fazilatlar xalqimiz ma'naviy hayotini yuksaltirishda muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimizda milliy merosni asrab-avaylash yo'lidagi amaliy sa'y-harakat va intilishlar xalqaro miqyosda ham keng ham aks-sado bermoqda.

Qadimiy obidalarini qayta tiklash, ta'mirlash, rekonstruktsiya qilish, konservatsiya ishlarini olib borish g'oyat murakkab, mas'uliyatli, chuqur ilmiy, tarixiy, yuqori professional mutaxassislik darajada yondashuvni talab etadigan jarayondir.

Xorijlik ekspertlarning fikricha mamlakatimizdagii turli qurilishlar tarixiy yodgorliklarning ko'rinishi, me'moriy yechimi va tuzilmasiga ta'sir ko'rsatayotgani uchun, tashqi ta'sirlar sababli himoyalaniishi zarur bo'lgan shaharlar ro'yxatga kiritilgan edi. O'zbekistonda keyingi 4-5 yillar mobaynida me'moriy obidalarini asrab-avaylash borasidagi davlatning ulkan amaliy qadamlari, ezgu xohish va intilishlari, irodasi xalqaro miqyosda ham yaqqol ko'zga tashlangani bois, Samarqandga yuqori malakali bilim va tajribaga ega bo'lgan shaharsoz va me'mor mutaxassislar, ekspertlar guruhlarini orqali tarixiy obidalarimiz qayta tiklandi, va ta'mirlanmoqda.

Mamlakatimizda xorijlik ekspertlar tomonidan qadimiy obidalarimizning ahamiyatini inobatga olgan holda uni qayta tiklash bilan bog'liq jarayonga g'oyat katta mas'uliyat bilan, xalqimiz ta'biri bilan aytganda "etti o'lchab, keyin kesish" nuqtai nazaridan yondashayotgani e'tiborga molikdir. Tegishli taklif va tavsiyalarning tayinlanishida yurtimiz Madaniy meros departamenti tomonidan barcha ma'lumotlar, hujjatlar, tahliliy hisobotlar o'z vaqtida taqdim etilayotgani bu boradagi ishlarning natijador va samarali kechishida muhim omil bo'lmoqda.


Milliy me'morchiligimizning noyob durdonasi — Samarqand shahridagi Shohi Zinda yodgorlik majmuasini mustaqillik yillarida qayta tiklandi, ta'mirlandi va obodonlashtirish ishlarini tashkil etish, uning infratuzilmasini rivojlantirildi Mustaqillik yillarida shoxi Zinda majmuasini qayta tiklash va ta'mirlashda faqat ustalar emas, olimlar, muhandislar, me'morlar, arxeologlar, tarixchilar, diniy idoralarning vakillari, obodonlashtirish va kommunal xizmat tashkilotlari xodimlari ham qatnashdilar. Barcha ishlar ilmiy loyiha va muayyan kontseptsiya asosida olib borildi.

Majmua ham bo'yiga, ham eniga ortiqcha tuproqlardan tozalandi. U ikki tomondan ham eniga kengaydi. Yodgorliklar bilan qabriston o'rtasida himoya devorlari qurildi. Maqbaralar, masjidning poydevorlari mustahkam asosda tiklandi. Majmua to'la darajada yer osti sizot va yomg'ir suvlaridan himoyalandi. Shohi Zindaga kirish darvozasi oldi ihotalanib, gulzor va xiyobonga aylantirildi.

Majmuaga kiraverishdagi ark-ayvon peshtog'i qarshisida qazish ishlari qizg'in borayotgan paytda ekskavatorning kuragi qattiq narsaga urildi. Arxeologlar bu joydan uzoq vaqt yo'l ostida qolib ketgan XVI asrga mansub hammomning bir qismini topdilar. Suv isitiladigan katta-katta xumlar, yuvinish xonalari, o'choqlar, tosh yo'laklar asl holida saqlanib qolgan. Ushbu yodgorlik bor holicha muhofazaga olindi. Bu yerda hammomning bo'lishi bejiz emas. Ajdodlarimiz Shohi Zindaga qabristonga kirishda poklanib, o'tganlarning ruhini e'zozlaganlar.



Qayta tiklash va ta'mirlash jarayonida bunday arxeologik yodgorliklar ko'plab topildi, deydi arxeolog Temur Shirinov. Majmuaning o'rta qismidagi sakkiz qirrali maqbara bilan Qusam ibn Abbos maqbarasi oralig'ida ilgari tuproq uyumidan iborat yalanglik bor edi. Bu tuproq uyumi olib tashlangandan keyin katta masjid o'rne, maqbaralarning ostki qismlari, o'ymakor qabrlar va boshqa inshootlarning qoldiqlari topildi. Bu yodgorliklarni qadimshunoslarimiz XIII-XIV asrlarga oid deb baholadilar. Xuddi ana shunday inshootlar chilzinaning kunchiqar tomonidagi tepalik ostidan ham chiqdi.



Majmuani ta'mirlash natijasida ko'plab tarixiy ma'lumotlarga ham aniqlik kiritildi. Avvallari allomalar, ulug' shaxslarga aloqador deb hisoblangan ba'zi maqbaralarga ayollar ko'milgani, noma'lum qabrlar kimlarga tegishli ekanligi

Ma'lumki, Shohi Zindadagi maqbaralarning deyarli hammasi xuddi Amir Temur maqbarasi kabi ustki va ostki qismlardan iborat. Maqbaralarning ustki qismlarida ziyoratchilar uchun ramziy qabrlar o'rnatilgan bo'lib, mayitlar ostki dahmalarga ko'milgan. Avvallari ana shu dahmalarga kirish yo'llari topilmagandi. Qayta tiklash ishlaridan so'ng yo'laklar ochildi.



Samarqand. Shahi-Zinda Ansambli. 1360-1361 yillar maqbarasi portalning stalaktit yarim qurolini qurish sxemasi

Ilmiy izlanishlar tufayli maqbara va masjidlarni qurgan ustalar, ularni qurdirgan shaxslar aniqlanib, tarixiy haqiqat tiklandi. Inshootlarning qurilishi bilan bog'liq yil sanalari ham o'rganib chiqildi.

Shuningdek, binolardagi yozuvlar tarixiy ma'lumotlar asosida qaytadan bitildi. Shohi Zinda yodgorlik majmuasi ilmiy xodimi Hamroqul Qayumov shunday deydi: "Keksa ustalar XIV asrda barpo etilgan Xo'ja Ahmad maqbarasini qurgan ustaning nomi borligi haqida aytishardi. Lekin biz uni hech topolmasdik. Kutilmaganda ana shu usta nomi aniqlandi. Uning nomi islmiy tarzda ishlangan gullardan birining bargi ichiga bitilgan ekan. Biz uni bargning bezaklari deb yuravergan ekanmiz. Ajdodlarimiz ana shunday yuksak san'at egalari bo'lishgan. Hali bunday tarixlardan yana qanchasini aniqlashimiz kerak..."

Bu yerda masjidlar, arkl ayvonlar, to'rtburchak, ko'p qirrali, aylanma shaklidagi maqbaralar, turli xil balandlikdagi minoralar, o'ymakor qabr toshlari kabi O'rta Osiyo me'morchiligining barcha ko'rinishlari mavjud. Har bir bino, masjid va maqbaraning qurilishidan tortib bezatilishigacha o'ziga xos, bir-birini takrorlamaydi. Ma'lumki, binolarni mayolika bilan bezash ishlari dunyoda O'rta Osiyo, Eron, Hindiston hunarmandchilik maktablari vakillari tomonidan amalga oshirib kelingan. Boshqa o'lka hunarmandlari esa bunday amaliy san'at sirlaridan voqif bo'lmaganlar.

Shu sababli XX asrda yurtimizda bezakli koshin, o'yma va bo'rtma mayolika tayyorlash unutila boshlangan edi. Ajdodlarimizning ularni tayyorlashga doir sirlarini bilmasligimiz natijasida XX asrda ta'mirlangan yodgorliklarning umrzoqligi saqlanmadi va tayyorlangan koshinlar, mayolika, terrakota bezaklari vaqt sinoviga dosh berolmadi. Shuning uchun Shohi Zindani ta'mirlash jarayonida koshin,

terrakota, mayolika tayyorlashning yangi-yangi usullari sinovdan o'tkazildi. Natija yaxshi bo'ldi. Ajdodlarimizga xos koshinpazlik sirlari o'rganildi va ta'mirlash ishlarida ulardan foydalanildi. Obidalar asl holiga keltirildi. "Bularning bari faoliyatimiz uchun yangilik bo'ldi, — deydi Madaniyat va sport ishlari vazirligi yodgorliklarni saqlash va ulardan foydalanish ilmiy ishlab chiqarish bosh boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Abdusafi Rahmonov. — Respublikamizda faoliyat yuritayotgan 700 dan oshiq hunarmand qadimiy yodgorliklarni qayta tiklash, ta'mirlashning barcha uslublarini yaxshi biladilar. Shu sababli bu ustalarning hammasi Shohi Zinda yodgorliklarini ta'mirlashda qatnashdilar".

Shohi Zindada boshlangan obodonlashtirish ishlariga har kim qo'lidan kelgancha o'z hissasini qo'shdi. Kimdir tuproq tashidi, kimdir g'isht terishga yordam berdi. Yana kimdir himmat ko'rsatib, bu yerda ishlayotganlar uchun dasturxon tuzadi, ustalarni siyladi. Bobolarning duolari ishlayotganlarning ruhini ko'tardi. Xalqimizning tariximizga, ajdodlar merosiga ehtiromi bu yerda ham namoyon bo'ldi.

Yigirmadan ortiq imoratlarni o'z bag'riga olgan yodgorlik majmuada qayta tiklash, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari nihoyasiga yetdi. Qusam ibn Abbos qabri va masjidi, Turkon oqa, Tuman oqa, Shodi Mulk oqa, Shirinbeka oqa, Tug'li Tekin maqbaralari, Jome masjidi, Amirzoda, Amir Burunduq, Xo'ja Ahmad, Qozizoda Rumiya nisbat beriluvchi xilxonalar nihoyatda go'zal va ko'rkam qiyofa kasb etdi. Chilzina atrofidagi imoratlarning gumbazlari, ravoqlari asl holiga keltirildi. Mirzo Ulug'bekning o'g'li Abdulaziz tomonidan barpo ettirilgan, majmuaga kirishdagi ark-ayvon ham aslidek qilib qurildi. Kirish arkining peshtoqiga sayqal berildi. Eng muhimi, Shohi Zinda tarixiy asosda tiklandi va ajdodlar merosi asl holiga keltirildi.

O'sha vaqtda Birinchi Prezidentimiz ziyoratchilar uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ushbu tarixiy yodgorliklar vositasida yoshlarni Vatanga sadoqat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda milliy g'urur va iftixorni shakllantirish masalasini ham o'rtaga qo'ydi. Yodgorlik majmuasi to'la ta'mirlanishi bilan bu boradagi ishlar ham o'z ijobiy yechimini topdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkingki, XX asrda yurtimizda bezakli koshin, o'yma va bo'rtma mayolika tayyorlash unutila boshlangan edi. Ajdodlarimizning ularni tayyorlashga doir sirlarini bilmasligimiz natijasida XX asrda ta'mirlangan yodgorliklarning umrboqiyli saqlanmadi va tayyorlangan koshinlar, mayolika, terrakota bezaklari vaqt sinoviga dosh berolmadi. Shuning uchun Shohi Zindani ta'mirlash jarayonida koshin, terrakota, mayolika tayyorlashning yangi-yangi usullari sinovdan o'tkazildi. Natija yaxshi bo'ldi. Ajdodlarimizga xos koshinpazlik sirlari o'rganildi va ta'mirlash ishlarida ulardan foydalanildi. Obidalar asl holiga keltirildi. Bularning bari tarixiy obidalarimizni ta'mirlash va qaytata tiklash faoliyatimiz uchun yangilik bo'ldi.

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan barcha hunarmand qadimiy yodgorliklarni qayta tiklash, ta'mirlashning barcha uslublarini puxta o'rganishlariga tajriba almashdilar. Shu sababli bu ustalarning hammasi Shohi Zinda yodgorliklarini ta'mirlashda o'z hissasalarini qo'shganlar.

Ajdodlarimizdan bizga qoldirgan me'noriy boyliklarni yuzaga chiqarish, insoniyat oldida o'zbek xalqining haqiqiy madaniy va ma'naviy qiyofasini ko'rsatish madaniy merosimizni tiklashning tarkibiy qismidir, O'zbekistonni olamga tanitishning zaruriy shartidir. Maqsad tarixiy yodgorliklarni puxta o'rganilib tiklash zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ш.М. Мирзиёев. "Биз буюк келажакимизни Жасур ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз." Ўзбекистон" нашриёти. Тошкент 2017.
2. Аҳмедов Муҳаммад Қосимович. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. Ўқув қўлланма. Тошкент "ЎЗБЕКИ СТОН" 1995
3. Пўлатов Х.Ш. Ўзбекистон архитектура ёдгорликлари. Т.:2003.
4. Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1405–1406).– М., 1990.
5. Шарофиддин Али Яздий. Зафарнома.–Тошкент, 1997.
6. Каримова, Н. А. (2023). ЎРТА АСРЛАР МЕЪМОРЛАРИНИНГ БИНОЛАРНИ ЛОЙИХАЛАШ УСУЛЛАРИНИ ЎРГАНИШ ВА УЛАРДАН МЕЪМОРИЙ ЁДГОРЛИКЛАРНИ ТАЪМИРЛАШДА ҚЎЛЛАШ. *ARHITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI*, 2(1), 107-111.
7. Каримова, Н. А. (2023). ЎРТА АСРЛАР МЕЪМОРЛАРИНИНГ БИНОЛАРНИ ЛОЙИХАЛАШ УСУЛЛАРИНИ ЎРГАНИШ ВА УЛАРДАН МЕЪМОРИЙ ЁДГОРЛИКЛАРНИ ТАЪМИРЛАШДА ҚЎЛЛАШ. *ARHITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI*, 2(1), 107-111.
8. MF Ibraimovna Palaces In The Historical Cities Of Uzbekistan Formation, *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 2022